

«呢», «哩», «呐» URG'U SO'ZLARINING QO'LLANISH O'RNI VA
«呢», «吗» SO'ROQ YUKLAMALAR FARQI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352074>

BOLTAYEV Mirzobek
Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Nasirova S.A.

... The word used in the particular end of the sentence. Means the sentence is expected, strengthen and hypothesis. The examples were used in Chinese literature in this article. There are so many dialects in Chinese. In this article, we can see how used in the other dialects ... the word. We think in the Chinese language to enhance the meaning of a sentence using this ...

Xitoy tilidagi yordamchi so'zlar mustaqil holda qo'llanilmaydi, doimo ular oldi-ortida boshqa so'z turkumlari bilan birga ishlatilib, ma'lum bir ma'noni anglatib keladi. Ularning turli xil holatlarga ishlatilishiga asosan, yordamchi so'z turkumlarini uchta katta quyidagi guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. Qurilmali yordamchi so'zlar: 的, 得, 地
2. Zamon yordamchi so'zlari: 了, 着, 过
3. Urg'u yordamchi so'zlari: 嘛, 吗, 呢, 吧, 啊, 拉¹

Urg'u yordamchi so'zlari gapning so'nggida kelib, gapiruvchining gapirayotgan paytida turli ohanglarni ifodalaganda ishlatiladi. Biz quyida esa asosan so'roq jummalarda ishlatiladigan urg'u yordamchi so'zlarini ko'rib chiqamiz.

“呢” (ne) so'roq yuklamasini ba'zi odamlar «ni» tarzida ham talaffuz etadi. Asosan, jumla so'nggida qo'llanilib, turli ohanglarni ifodalashda ishlatilib kelinadi. Quyida biz uning ishlatilish usullarini yoritib berishga urinib ko'ramiz.

I. So'roq va ritorik gaplarning so'nggida ishlatiladi.

1. So'roq jumlaning ifodalab, “呢” faqatgina maxsus so'roq gaplar, alternativ so'roq gaplar va ritorik so'roq gaplarning oxirida keladi. Lekin inkor so'roq gaplardan keyin ishlatib bo'lmaydi.

a) Maxsus so'roq olmoshlar bilan birga gap oxirida kelib, gapda so'roq so'zni ifodalaydi. Misol uchun:

- 革命的主体是什么呢? 就是中国的老百姓。² (Inqilobning asosiy mavzusi nima edi?)

Albatta Xitoyning oddiy xalqidir.)

- 白李上哪儿去呢?³ (Bayli qayerga ketgandi?)

¹ “现代汉语语法” 李扶乾 31-33 页 “Hozirgi zamon xitoy tili grammatikasi” Li Fuchian 31-33-bet

² «毛泽东选集»526 «Maozedong» asarlar majmuyi 526-bet

³ «老舍短篇小说»9 «Laoshe qissalari» 9-bet

“呢” maxsus so’roq olmoshlar bilan kelgan gaplarda, ba’zi holatlarda so’roq olmoshi tushib qoladi. Misol uchun:

- 丁纬: (坐下来抽了一支烟, 打断她) 妈妈呢? 怎么一转眼就不见了。 ⁴ (Dingvey: (O’tirib sigara chakib, uning gapini bo’lib) Onamchi? U qayerlarda yurgan ekan.)

Bu misolda “妈妈呢?” (Onamchi?) aslida “妈妈在哪里呢?” (Onam qayerda?) shaklida kelishi kerak edi, lekin so’roq olmoshi tushib qoladi. Ma’nosi esa o’zgarmay saqlanib qoladi.

b) Alternativ so’roq gaplarning oxirida keladi. Misol uchun:

- 我问你, 你过去东奔西跑, 看不上这, 瞧不起那, 痛苦沉闷, 是为了谁? 为劳苦大众呢, 还是为了自己? ⁵ (Menga qara, sen ilgari u yerga ham bu yerga ham yurib mensimading, qiynalishining kim uchundir? Mehnatkash xalq yoki o’zing uchunmi?)

c) Tasdiq inkor so’roq gaplarda ham jumlaning oxirida ishlatiladi. Misol uchun:

- 他是不是去年的工厂人呢? 当然是。(U o’tgan yildagi zavod ishchimasidmi yoki yo’q? Albatta!)

2. Ritorik so’roq gaplarning oxirida kelib, savolning ohangini kuchaytiradi.

- 在一年时间内就增加了这么巨大的生产能力, 给以一定的投资, 有什么划不来的呢? ⁶ (Bir yilda bunday katta hajmli ishlab chiqarish kuchi uchun albatta kapital kirgizish kerak. Bunga arzimaydigan nima bor?)

- 既是她的婆婆要她回去, 那有什么话可说呢。 ⁷ (Uning qaynonasiga uni qaytib kelish kerak bo’lgan taqdirda ham, u holda yana nima gap etish mumkin.)

II. *Darak gaplarda qo’llanishi.*

1. Ma’lum bir harakat yoki holatning davom etayotganligini ko’rsatadi, ba’zi hollarda gapda davom etayotgan holat so’zini ifodalaydi. Misol uchun:

- 这老汉并且还请来了打绳匠, 在添补大车和牲口上的绳套呢! ⁸ (Bu qariya yana cho’ponni taklif qildilar, aravani yopadigan ot-ulovlarni bog’laydigan arqon-chi deb so’radilar)

- 是两间小屋, 门开着呢, 四位伙计在凳子上坐着, 都低着头吸烟。 ⁹ (Ikki xonalik kichkina uyning eshigi ochiq bo’lib, to’rt birodar o’tirgan holda, boshini egib sigara chakmoqda.)

- 请你别吵, 屋里有人睡觉着呢。(Itimos shovqin solmang, xonada odamlar uxlashyapdi.)

Birinchi misolda davom etayotgan holat so’zi bu “在” bo’lsa, ikkinchi va uchinchi misolda “着” bo’ladi.

2. Gapda to’xtashilikni bildirib, “至于...” (bo’lsa) ma’nosida keladi. Misol uchun:

- 材料是最结实材料, 样式是最合意的样式, 工程呢, 那就没有能比较的了。

¹⁰ (Matrial, eng mustahkam matrial, uslub esa juda mos keladigan uslub, loyihachi? Undayda solishtirishning imkoniyati yo’q)

- 半个月前, 张培还躺在医院里, 胸脯上的弹伤算好了, 身体呢, 还很弱。 ¹¹ (Yarim oy oldin, Jangpey kasalxonaga yotgan edi, uning ko’krakdagi o’q jarohati ancha yaxshi bo’ldi, sog’lig’i, hali ham juda nimjon.)

⁴ «考验»4 «Sinov» 4-bet

⁵ «青春之歌»116 «Erta bahor qo’shig’i» 116-bet

⁶ «人民公社万岁»326 «Xalq jamiyati yashasin» 326-bet

⁷ «鲁迅全集»二卷 12 «Lushun asarlar majmui» ikkinchi qism 12-bet

⁸ «春种秋收»42 «Bahorda ekib kuzda terish» 42-bet

⁹ «老舍短篇小说集»32 «Laoshe qissalari» 32-bet

¹⁰ «高乾大»5 «Gaochianda» 5-bet

Birinci va ikkinchi misoldagi “工程呢” (loyiha-chi) va “身体呢” (sog’liq-chi) so’zlarini “至于工程” (loyiha bo’lsa-chi) va “至于身体” (sog’liq bo’lsa-chi) lar bilan almashtirsa ham bo’ladi.

III. *Tasdiq ohang va yorqin hissiyotni ifodalaydi.*

1. Tahmin, faraz ohangini bildiradi.

- 说不定那幢新校舍躲在什么角落儿里呢。¹² (Extimol, maktab yotog’i u binoning qaysi bir burchaklarda bo’lishi mumkin.)

- 秦司令员在电话上亲口说就要派来，说不定到了呢！¹³ (Qo’mondon Chin telefonda odam jo’natganligini o’z og’zi bilan aytgan edilar, balki kelgan bo’lishi mumkin.)

2. Mubolag’a, maqtoovni kuchaytirish ohangida keladi. Misol uchun:

- 我认识他呢，一定能找到他。(Men uni taniyman-ku, albatta topa olaman)

- 我才不去呢，爱怎么就怎么吧。(Men bormayman, nima qilsang shuni qilgin.)¹⁴

3. Uyg’onganlik, esiga tushganlik, xotirasiga kelganlik ma’nolarini bildiradi. Misol uchun:

- 差一点儿忘了，这还有一封信呢！¹⁵ (Esimdan chiqa yozibdi, bu yerda yana bu xat ham borku.)

- 怪不得呢！我才明白啊！¹⁶ (Ajablanarliku, men endigina tushunib yetdim.)

4. Nafratlanish, jirkanish, qoniqmaslik, ko’ngli to’lmaslik ohanglarini ham ifodalaydi. Misol uchun:

- 姚大婶说：“理他呢，他就是那么个脾性，一不高兴，挂这个脸，整天不说话，待人心眼可实落，...”¹⁷ (Yov kenayi aytdilarki: “Unga qo’ybersang, uning shunday xulqi bor, yuzida istarasi yo’q, kun bo’yi gapirmay, odamning ichini siqadi”)

- 我才不稀罕你的同意呢！¹⁸ (Men sening roziliging xush kelmadi)

Bundan tashqari “听他的呢”，“管他呢” va shu kabilar aslida qoniqmaslik ma’nosida bo’lib, inkorlikni bildirib keladi.

5. Zidlovni bildiruvchi bog’lovchilardan keyin kelib, zidlov ohangini kuchaytiradi. Misol uchun:

- 不要说王三胜输给他，沙子龙也不是他的对手，**不过呢**，王三胜到底和老头子见了个高低，而沙子龙连句硬话也没敢说。¹⁹ (Vangsansheng unga yutqazib qo’ymasdan, Shazilong ham uning raqobatdoshi emas, biroq, Vangsansheng oxirgacha qariya bilan olishdi. Lekin, Shazilong bir o’giz qattiq gapirishga ham jur’at etmadi)

哩 li ohang so’zini ishlatilishi

“哩” ohang so’zi “呢”ning o’zgargani bo’lib, “li” tarzida talaffuz qilinadi. Biz bu ohang so’zini ma’lum bir dialektlardagina uchratishimiz mumkin.

- 我偷偷看着，新郎也吃了，还吐核哩！²⁰ (Men o’g’irincha qaraganimda, kuyov ham yeb bo’lgandan keyin qayd qilgan edi.)

¹¹ «保卫延安»4 «Tinchlikni asrash» 4-bet

¹² «给孩子们»51 «Farzandlarga» 52-bet

¹³ «三千里江山»25 “Bir yarim ming kilometrli Jiangshan 25-bet

¹⁴ «新儿女英雄传»22 «Yangi avlod qahramonlari» 22-bet

¹⁵ «独幕剧选»263 «Dumu drama tanlangan asarlar» 263-bet

¹⁶ «独幕剧选»240 «Dumu drama tanlangan asarlar» 240-bet

¹⁷ «三千里江山»12 “Bir yarim ming kilometrli Jiangshan” 12-bet

¹⁸ «给孩子们»25 «Farzandlarga» 52-bet

¹⁹ «老舍短篇小说»23 «Laoshe qissalari» 23-bet

²⁰ «我的一家»4 «Mening uyim» 4-bet

呐 na ohang so'zi haqida

呐 ohang so'zi “呢” va “啊” ning qo'shilmasidan hosil bo'lgan. Ba'zi hollarda “哪” shaklida ham yoziladi. “呐” ohang so'zi “na” yoki “ne” tarzida talaffus qilinadi. “呐” ishlatilinishi “呢”ga nisbatan kengroq bo'lib, ohangni kuchaytiradi. Hozirgi kunda odamlar “呢” va “呐”ni xoxlaganlaricha, xolasalar uni, xolasalar buni ishlatadilar. Misol uchun:

- 阿金, 你刚才去车间干什么呐? (Ajin, hozirgina sehga borganingda nima qilayotgan eding?)

“呢” va “吗” so'roq yuklamalarini solishtirish:

1. “呢” nafaqat so'roq gaplarda, balki darak gaplarda ham ishlatiladi. “吗” dan darak gaplarda foydalana olmaymiz.

2. “呢” yuqorida aytib o'tilganidek, maxsus so'roq, alternativ, ritorik so'roq gaplarda ishlatililib, inkor so'roq gaplarda ishlatilmas edi. “吗” inkor so'roq gaplarda ham kela oladi. Ba'zi hollarda “吗”so'roq so'zlar bilan birga kelib, so'roq so'zlar gapda bosh bo'lak yoki ikkinchi darajali bo'lakni ifodalaydi.

- 谁都知道吗? (Hamma biladimi?)
- 你想买些什么吗? (Sen nimalar sotib olmoqchisan?)

Bu yeda “谁” bosh bo'lak, “什么” esa ikkinchi daraja bo'lakni ko'rsatadi.

Fikrimiz so'nggida, shuni aytmoqchimizki, inson o'zining ichki his-tuyg'ulari, kechinmalari, maqtov-u, nafratlarini ifodalagan paytda urg'u yordamchi so'zlaridan foydalanishi tabiiy holatdir. Biz kimgadir o'z fikrimizni aytayotganda oddiy qilib aytgandan ko'ra, urg'u yordamchi so'zlarini ishlatib aytganimiz tezroq ta'sir etadi.

Yuqorida xitoy tiliga oid urg'u so'zlarini keltirdik. Demak, xitoy tilida ham urg'u so'zlari yordamida o'z xisssiyotlarimizni namoyon qila olar ekanmiz. Biz yuqorida keltirilgan misollar orqali shuni ko'rishimiz mumkinki, xitoy tilidagi urg'u so'zlari bizning ona tilimiz o'zbek tiliga asosan “-chi”, “-ku”, “-a”, “-da”, “edi”, “ekan”, “ekanda” deb tarjima qilinadi. Biz bilamizki, Xitoyda shevalar juda ham ko'p bo'lganligi sababli bir so'zning bir necha xil talaffuzlari bor. Biz o'rgangan urg'u so'zimizning boshqa shevalarda qanday ishlatilinishini ham tekshiruvimiz so'nggida keltirib o'tdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI (REFERENCES)

1. “现代汉语虚词例释”北京大学中文系1955-57级语言班编- 1986年 北京. 343-346页
2. “现代汉语语法”李扶乾 求实出版社
3. www.baidu.cn
4. СА Хашимова О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). - SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 2022.
5. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
6. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
7. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (p. 361).
8. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.

9. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
10. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
11. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
12. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
13. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
14. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
15. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
16. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
17. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
18. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
19. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
20. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019